

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.A.Usmonov</b>	
Temuriylar davri Xorazm shaharlarining mudofaa imkoniyatlari.....	338
<b>Sh.M.Ro'ziqulov</b>	
1960-1980 yillarda O'zbekiston hunar-texnika ta'lim tizimida o'zgarishlar .....	344
<b>E.A.Botirov</b>	
Turkistonda bojxona ishi faoliyatida kadrlar masalasi (1917-1924 yillar) .....	348
<b>A.A.Aloxunov, Z.O.Raxmanov</b>	
Arxeologik dala qidiruvlarini olib borishda zamonaviy texnika va texnologiya usullaridan foydalanishning samarali jihatlari .....	353
<b>Sh.Y.Qudratov</b>	
Buxoro amirligida tadbirkorlikning qorako'l teri yetishtirish va savdosi to'g'risidagi ayrim mulohazalar.....	357
<b>U.K.Yuldashev</b>	
Oliy ta'limga qabul jarayonlarida xorijiy tajribaning qo'llanilishi .....	362
<b>M.B.Abduraimova</b>	
Processes of gold mining in Bukhara at the end of the 19th and the beginning of the 20th century .....	369
<b>M.A.Мубинов</b>	
Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами .....	372
<b>A.T.Ochilov</b>	
Buxoro vohasining paleogeografiyasi.....	378
<b>L.N Muxamadiyeva</b>	
Turkistonda harbiy jurnalist kadrlar tayyorlash tarixidan (1919–1924 yillar).....	383

---

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>G.Erhan, A.G.Sabirdinov, G.M.Oripova</b>	
XX asr she'riyati va G'afur G'ulom .....	387
<b>T.Matyoqubova</b>	
Tuyg'u va kechinmaning poetik jilosi .....	393
<b>K.U.Kubayev</b>	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin .....	398
<b>G.O.Ismailova</b>	
“Qutadg'u bilig”dagi Allohning muqaddas ismlari va ularni tarjimada qayta yaratish masalalari .....	402
<b>L.B.Ikromova</b>	
Adabiy asarlarda maqollarning o'rni .....	406
<b>N.U.Ochilova</b>	
Badiiy matnda realiyalarni tarjima qilish xususida.....	411
<b>X.Ч.Чамолова</b>	
Таъсирпазирии Бобур аз адабиёти форсии тоҷикӣ.....	417
<b>M.Z.Djalalidina</b>	
Comprehending the mysteries of postmodern literature: the art of the word by muriel spark .....	421
<b>X.B.Hasanova</b>	
Xudoyberdi To'xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida qo'llangan fentezi janrining tasnifi ...	425
<b>G.O.Abdujalilova</b>	
Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasida milliylikning aks etishi .....	429

---

#### TILSHUNOSLIK

<b>R.R.Sayfullaeva, N.I.G'aybullayeva</b>	
Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida.....	432
<b>M.Y.Mamajonov</b>	
Muloqot psixolingvistik hodisa sifatida.....	438
<b>Sh.M.Iskandarova, M.X.Komilova</b>	



UO‘K: 94.332.1: 9

**BUXORO AMIRLIGIDA TADBIRKORLIKNING QORAKO‘L TERI YETISHTIRISH VA SAVDOSI TO‘G‘RISIDAGI AYRIM MULOHAZALAR****НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ О ВЫРАЩИВАНИИ И ТОРГОВЛЕ КАРАКУЛЬСКОГО МЕХА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ****SOME INFORMATION ON THE CULTIVATION AND TRADE OF KARAKUL FUR IN BUKHARA EMIRATE****Qudratov Shuxrat Yodgorovich**

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi, t.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanib, xususiy mulkchilikka asoslangan qatlarning kengayib borishi, qorako‘l terilarini to‘plash va xorijga sotish uchun tayyorlash yirik tadbirkorlar qo‘lida ekanligi to‘g‘risida batafsil ma‘lumot berilgan. Shu bilan birga Buxoro amirligi butun jahonda qorako‘l yetishtirish bo‘yicha yetakchilik qilganligi, qorako‘lchilik asosiy daromad manbai bo‘lib, qorako‘l terilari Rossiya va Yevropa bozorlarida yuqori baholanganligi ta‘kidlab o‘tilgan.

**Аннотация**

В данной статье дана подробная информация о том, что в конце XIX – начале XX века за развитием предпринимательства и расширением слоя, основанного на частной собственности в Бухарском эмирате сбор и подготовка шкур каракуля для продажи за границу находилось в руках крупных предпринимателей. В том числе, отмечено, что Бухарский эмират являлся лидером по разведению породы каракульской овец во всем мире, получение каракульских мехов являлось основным источником дохода, а шкуры каракульских овец высоко ценились на рынках России и Европы.

**Abstract**

This article provides detailed information that in the late XIX – early XX century, during the development of entrepreneurship and the expansion of the layer based on private property in the Bukhara Emirate, the collection and preparation of karakul skins for sale abroad was in the hands of large entrepreneurs. In particular, it was noted that the Bukhara Emirate was the leader in breeding the Karakul sheep breed all over the world, obtaining Karakul furs was the main source of income, and the skins of Karakul sheep were highly valued in the markets of Russia and Europe.

**Kalit so‘zlar:** qorako‘l teri, chorvador, tadbirkor, savdogar, vositachi, eksport, yarmarka, do‘kon, sarmoya, boj, karvonsaroy, bozor.

**Ключевые слова:** каракульский мех, скотовод, предприниматель, торговец, посредник, экспорт, ярмарка, магазин, инвестиция, таможенная пошлина, каравансарай, рынок.

**Key words:** karakul fur, cattle breeder, entrepreneur, trader, intermediary, export, fair, shop, investment, customs duty, caravanserai, market.

**KIRISH**

Buxoro aholisi dehqonchilik, bog‘dorchilik, hunarmandchilikdan tashqari chorvachilik bilan ham shug‘ullangan bo‘lib, bu soha amirlik iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Xususiy mulkchilikka asoslangan qoramol boqish, yilqichilik, tuyachilik va qorako‘lchilik chorvadorlar qatlamining kengayib borishiga xizmat qilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Vasin B.N. “Rukovodstva po karakulevodstvu” Moskva, 1976, F.Xo‘jaev “Tanlangan asarlar” 1-tom, Toshkent, 1976, Suxareva O.A. “Buxara XIX-nach XXvv.” Moskva 1966, Shimonovskiyning “Turkiston” to‘plamidagi maqolalari, O‘zbekiston milliy arxivining I-1, I-3 fondlarida Buxoro amirlidagi savdo aloqalari va tadbirkorlik tarixi to‘g‘risidajuda qiziqarli ma‘lumotlar uchraydi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi butun jahonda qorako'l teri yetishtirish va uni sotish bo'yicha yetakchilik qilgan. Buxoro amirligida eng yaxshi qorako'l qo'ylari Buxoro, Qarshi, Karki hududlarida boqilgan. Bu hududlardagi qorako'l qo'ylari kichik tadbirkorlarga tegishli bo'lib, terilarni to'plash va xorijga sotish uchun tayyorlash yirik tadbirkorlar qo'lida edi [1]. 1840-1850-yillarda Buxorodan Rossiyaga Orenburg yo'li orqali 427797 dona, Troitskiy orqali 60583 dona qorako'l terisi olib ketilgan. Buxorodan Eronga qorako'lning olib ketilishi 1844-yildan boshlab ko'paygan. Chunki Бухоро амирлиги tomonidan inglizlar bilan savdo aloqalarining ta'qiqlanishi bois Angliya hukumati to'g'ridan-to'g'ri emas, balki Eron savdogarlari vositachiligidagina qorako'l sotib olishga majbur bo'lgan. Qorako'l terilari Angliya orqali butun Yevropaga tarqalib, terilar Yevropa bozorlarida oltin bahosida sotilgan [2].

Chetga chiqarilgan qorako'l terisi navlari ichida Qarshi bekligida yetishtirilgan ko'kish kulrang navi alohida o'rin tutgan. Qorako'l terisining doador, karpak (muddatidan avval tug'ilgan qo'zilar terisi) navlari juda mashhur bo'lib, ular Rossiya, Angliya, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Eronga ko'p sotilgan. Bu davlatlar o'rtasida tovar ayirboshlash ortib borgan. Masalan, 1865-yili Buxoroning Rossiyaga eksporti 830600 rubldan 1911-1913-yillarda 3125000 rublga ko'tarilgan. Buxoro amirligi eksportining 88 foizi, importining 90 foizi Rossiya hisobiga to'g'ri keldi. Chorvachilik xo'jaliklari ham yetishtirgan mahsulotlarini eksportga mo'ljalladi. Natijada XIX asr o'rtalarida Buxoro chetga 30-40 ming dona qorako'l chiqargan bo'lsa, 1911-1914-yillarda bu 1,5 mln donaga yetkazildi [3]. Ammo urush, iqtisodiy inqirozlar tufayli Buxoroning eksporti keskin kamaydi. 40-45 mln. rubldan 1921-yil 1 mln. rublga tushib qoldi.

XX asr boshlarida qorako'lchilik Buxoro amirligining asosiy daromad manbai edi. Qorako'l terilari Rossiya va Yevropa bozorlarida yuqori baholanib, Sankt-Peterburg auksionlarida va Fransiyaning Lion, Rossiyaning Nijniy-Novgorod, Makar yarmarkalarida sotilgan. 1908-yilda birgina Nijniy-Novgorod yarmarkasida 1 mln 700 ming dona qorako'l teri sotilgan bo'lib, yarmi Rossiya firmalari va mahalliy aholi tomonidan, qolgan yarmi esa chet el firmalari hissasiga to'g'ri kelgan [4].

Nijniy-Novgorod yarmarkasi nafaqat qorako'l teri, balki undan tayyorlangan mahsulotlarni ham sotadigan yirik bozor bo'lgan. Bu yerda eng oxirgi rusumdagi kiyim-kechaklar bozori bo'lib, qorako'ldan ayollar uchun tikilgan uzun paltolarga qiziqish kuchli edi [5].

1907-yili ingliz savdogarlari Buxoro qorako'lining har bir donasiga joyida 98-104 rubldan, yuqori navlisiga 115-120 rubldan, qorako'l mayda bo'laklariga naviga qarab 52-63 rubldan 65-75 rublgacha pul to'lab ulgurji sotib olgan. Qorako'l terini Rossiya savdogarlari inglizlarga nisbatan past baholab, donasiga 92 rubldan to'laganlar [6].

Buxoro amirining savdogarlari Yevropa va Osiyoning qator yirik shaharlarida qorako'l terisi bilan savdo qilishgan. Kattaqo'rg'on, Xo'jand kabi hududlarda yetishtirilgan qorako'l terilari Buxoroda tayyorlangan terilarga nisbatan past bahoda narxlanib, 85-88 rubl atrofida bo'lgan [7].

Keyingi yillarda qorako'l terisiga xorij mamlakatlarning talabi ortganligi sababli uning narxi ham oshib borgan. Masalan, 1909-yili Rossiya yarmarkalarida qorako'l bahosi 110-130 rublgacha ko'tarilgan [8].

G'arb xaridorlarining qorako'l terilariga qiziqishi yuqori bo'lib, ular qorako'l qo'ylarini Yevropaga keltirishga harakat qilsalar-da, Buxoro amirligi tirik qorako'l qo'ylarini ularga sotmaslikka harakat qilgan. Faqatgina 1897-yildan boshlab, Avstriyaga Buxorodan qorako'l qo'ylar sotib olib borilgan.

Germaniya qorako'l terini sotib olishda Rossiya imperiyasining asosiy raqobatchisi hisoblanib, nemis ishbiarmonlari va firmalari Germaniyaning Leypsig shahrida qorako'l mahsulotlari yarmarkalarini tashkil etdi. 1909-yili Buxoroga Leypsigdan qorako'l savdosi bilan shug'ullanuvchi yirik firma egasi janob Torrер keldi. Firma vakillari Nijniy-Novgorod yarmarkasini chetlab o'tib, Buxoroga qorako'l terilarini sotib olish uchun keldi va 1909-yili mazkur firma Buxorodan 200 ming dona qorako'l terisini sotib oldi [9].

Buxoroning Qorako'l tumani qorako'l teri yetishtiruvchi asosiy hudud hisoblanib, uning aholisi 1910-yili 5 ming kishini tashkil etgan. Qorako'lning oliy navlisi asosan shu tumanda, Buxoro va Qarshi shaharlari oralig'idagi O'rta cho'lda yetishtirilgan. Shuningdek, Kaspiyorti viloyatining Pendin vohasida, shuningdek, Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on va Xo'jand uyezdlarida qorako'l qo'ylar boqilgan [10]. O'z o'rnida chetga qorako'l terisi eksporti ham ortib borgan. 1910-yili

## TARIX

Buxoro amirligida 500 ming dona qorako'l teri chetga chiqarilgan bo'lsa, 1912-yil 800 ming dona yetgan [11].

Qorako'l savdosi sohasida romitanlik Choriqulboy Pirnafasov (1847-1934 yy) erishgan yutuqlar alohida e'tiborga loyiq. Shuningdek, qorako'l savdosida shaxsan Buxoro amiri Sayid Olimxonning ishtiroki ham manbalarda ko'rsatilgan. Ubaydullaxo'ja Qosimxo'ja o'g'li (1858-1912 yy, Fayzulla Xo'jayevning otasi)ning qorako'l savdosidan keladigan bir yillik daromadi 1 mln oltin rublni tashkil qilgan. Uning Rossiya va Yevropa shaharlarida qorako'l bilan savdo qiladigan maxsus do'konlari bo'lgan.

Birinchi jahon urushiga qadar qorako'lchilik, ipak va jun mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalari yildan-yilga o'sib borgan. Buxoro amirligidan Rossiyaga mustamlaka davrining dastlabki yillarida 30000-40 000 dona qorako'l teri chiqarilgan bo'lsa, 1914-yilga kelib bu nisbat 1.800 000 donani tashkil qilgan. Qorako'l terining 80 foizi Rossiyaga eksport qilingan [12].

1914-1918-yillarda davom etgan Birinchi jahon urushi davrida O'rta Osiyo uchun ham eng og'ir va qahatchilik yillarida qorako'l qo'ylari soni 3 baravarga kamaygan [13].

Rossiyada Birinchi jahon urushi, fuqarolar urushi va chet el intervensiyasi tufayli boshqa sohalardagi inqirozlar kabi qorako'l teri bilan savdo qilish ham deyarli to'xtab qolgan. Buxoro va Xivada bevosita urush harakatlari bo'lmagan bo'lsa-da, ammo bu davlatlar Rossiya ta'sirida bo'lganligi tufayli Rossiyasiz o'z tovarlarini Yevropa mamlakatlariga sota olmaganlar. Tinchlik davrida Buxoroda har yili 2 milliondan ortiq qorako'l teri yetishtirib turilgan bo'lsa, 1920-yilda qorako'l teri yetishtirish 200 ming donaga tushib ketgan [14].

Buxoro amirligi xorijga 1914-yili 900 ming dona qorako'l terisi chiqargan bo'lsa, 1919-yil 30.000 dona, 1920-yil 50.000 dona qorako'l terisini eksport qilgan. Sotilgan qorako'l terilarining 50 foizi Afg'oniston va Eronga yuborilgan [15].

Buxoro qorako'l terilari rus bozorlari, Kavkaz, Eron va hatto Amerikada ham xaridorgir bo'lgan. Nije Novgorod yarmarkasi qorako'l terisi sotish bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlarda turgan. Yarmarkada sotiladigan jami mollarning eng yuqori o'rinida baholangani qorako'l terisi bo'lib, 35 foizga qimmatlashgan, xususan Amerika mamlakatlaridan xaridorlari ko'p bo'lgan.

Buxoro amiri Abdulahadxon qorako'l teri yetishtirishga alohida e'tibor qaratgan. Uning ko'rsatmasi bilan Qarshi, Chorjo'y, Karki tumanlaridan 200 ming dona qorako'l teri bozor narxidan 10% arzon narxda sotib olingan. O'sha yerning o'zida navlarga ajratilib, Rossiya bozorlariga sotish uchun yuborilgan [16]. 1840-1841-yillarda amirlikdan 398000 dona qorako'l teri chetga chiqarilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1887-yilda 750000 donaga, XX asr boshlariga kelib 1.5 mln donaga yetgan. Amirlikda qorako'l teri savdosi bilan shug'ullanuvchi 30 ga yaqin yirik savdogarlar bo'lib, ular hamkorlikda faoliyat yuritishgan [17].

Xalqaro bozorda buxorolik savdogarlar Latifxo'ja, Ubaydullaxo'ja, Nasriddinboy, Yahyoboy, Abdurauf, Jo'rabek Arabov kabi karvonboshilar qorako'l teri savdosi bilan shug'ullanganlar [18]. Jo'rabek karvonboshi jahon bozoridagi qorako'l teri savdosida birinchi o'rinda turgan. U amirlik Buxoro shahri atrofidagi tumanlarda yashovchi chorvador arablardan qorako'l teri sotib olgan. U tomonidan bunyod etilgan Jo'rabek karvonsaroyi esa poytaxtdagi qorako'l teri savdosining o'ziga xos markazi hisoblangan [19].

Amir Abdulahadxon Jo'rabek Arabov, Latifxo'ja va Ubaydullaxo'ja Qosimxo'jayevlar kabi savdogarlar bilan birgalikda qorako'l teri xaridi uchun teng miqdorda sarmoya kiritgan. Savdodan kelgan foyda teng taqsimlangan. Teri sotib olish jarayonida 10 ming tilla tangagacha sarmoya sarflanganligi haqida ma'lumotlar mavjud [20].

Amir Abdulahadxon ichki bozor, shuningdek, amirlik bilan savdo aloqalarda bo'lgan mamlakatlar bozorlaridagi narx-navoni doimiy kuzatib borgan. Ichki va tashqi bozorlardagi mahsulotlarga nisbatan bo'lgan talab-takliflar savdo agentlari tomonidan o'rganilib, amir bu jarayonlardan xabardor qilib turilgan. Shuningdek, Amir Abdulahadxon savdogarlarni qo'llab-quvvatlagan. Tijorat ishlarida biror savdogar kasodga uchragudek bo'lsa, amir savdogarni xonavayron bo'lishdan saqlab qolgan. Jumladan, Latifxo'ja o'z mijozlaridan 140 ming so'm qarzdor bo'lib sinish xavfi ostida qolganida amir tomonidan to'lab berilgan [21].

Amir Abdulahadxon davlat boshqaruvida karvonboshilar maslahatiga tayangan. Savdo-iqtisodiy va siyosiy-diplomatik rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ulardan foydalangan. 1892-yilda Abdulahadxonning Peterburg sayohatida Abdurauf Karvonboshi, Mansurboy,

Yaxyoboy, Muqimboy, Latifxo'ja va Jo'rabeklar hamrohlik qilgani amirning yirik savdogarlar bilan yaqin aloqa bo'lganini ko'rsatadi [22].

1890-yillarda amirlik Jo'rabek karvonboshi, Mirzaboy Otajonov, Ziyodulla Yoqubovlar vositachiligida qorako'l terining 75% ini Parij, London, Leypsig, Nyu-York, Kanada savdo firmalariga sotgan. 1892-1902-yillar davomida G'arbiy Yevropa bozorlarida har yili 1.400ming - 2mln dona atrofida qorako'l teri sotilgan. Bu holat rus hukumati va savdogarlarini yirik daromaddan mahrum etmoqda edi. Leypsigdagi rus konsuli Buxoro qorako'lining G'arbiy Yevropa bozorlariga chiqish yo'lini to'sish uchun amirlik savdogarlari qorako'l terini faqat rus savdogarlariga sotishi, xorijliklarga sotmasligi, mol sotilgan taqdirda esa sotuvchi va oluvchining bo'yniga katta boj yuklashni ko'zda tutgan taklifini amalga oshirgan [23].

XX asr boshlariga kelib Buxoro qorako'lining Yevropa bozorlariga chiqarilishi hajmi 75% dan 50% ga tushib koldi, rus shaharlariga jo'natilayotgan terilarning miqdori esa oshib bordi. Amirlikning Rossiyaga eksport hajmida qorako'l teri salmog'i 42% ga yetadi. Buxoro tashqi savdosida rus hukumati nazorati va tazyiqi tobora kuchayib borishi buxorolik savdogarlar orasida rus hukumatiga nisbatan norozilik kayfiyatini kuchaytirgan. Jumladan, Buxoro karvonsaroylarida eng sifatli qorako'l terilarini rus savdogarlarigina sotayotgan dallollar bilan mahalliy savdogarlar o'rtasida katta tortishuvlar bo'lib, qorako'l teri savdosi to'xtab qolgan hollar ham ro'y bergan [24].

Buxoro amirligining so'nggi hukmdori Amir Sayyid Olimxon 1914-yilda yaqin qarindoshlari To'raqul Qori Muzrob va Qori Muhammadlar orqali 13500 dona qorako'l terisini Angliyaga yuborgan. Afg'onistonda bo'lgan davrida esa Hoji Ismoilbek va To'raqullar vakolatli shaxslar sifatida qorako'l terini sotish uchun Angliyaga borganlar va London shahrida 17 million 500 ming hind rupiyasiga sotganlar [25].

Buxoro amirligida savdogar boylar bilan birga qorako'l qo'ylarini boquvchi chorvador boylar ham bor edi. Ular Buxoro bozorlariga katta miqdorda qorako'l terilarini yetkazishar edi. Jumladan, Choriqulboy va Murodboylar qorako'l teri savdosi bilan shug'ullanuvchilarga 20-30 ming dona qorako'l teri yetkazib bergan.

Chorvadorlar va savdogarlar o'rtasida shunday kishilar bor ediki, bular vositachilar (dallollar) edi. Vositachilar ham tadbirkorlar bo'lib, ikkala tomon uchun ham manfaatli yo'l tutishga harakat qilganlar. Ular boy savdogarlardan tilxat asosida pulni olib, o'zlari cho'llarga borishgan va chorvadorlarga avans (bo'nak) berib kelishgan. Qorako'l terini yig'ish mavsumida esa to'liq to'lov qilib, terilarni sotib olib kelishgan [26].

Rossiyada yashab, xorijiy tijoratchilar bilan savdo olib borayotgan buxorolik yirik savdogar Latifxo'ja, ukasi Ubaydullaxo'jaga yozgan maktubida, omborxonalarda birorta ham sur teri qolmaganini, nemis, fransuz, ingliz ulgurji savdogarlari terilarni hammasini xarid qilingani, qo'zilatish mavsumidan ilgari sur terilarga chorvador boylar bilan ko'proq shartnoma tuzishni, ayniqsa, Romitan va Jondor atrofidagi cho'llarda boqilayotgan qo'ylarning terisini iloji boricha ko'proq sotib olish lozimligini ta'kidlagan. Ubaydullaxo'ja Romitan tumaniga borib chorvador Choriqulboydan 50.000 dona qorako'l terisini xarid qilish to'g'risida kelishuv imzolagan [27].

Buxoro shahrida 3 ta karvonsaroyda: Saroyi po'st, Saroyi barra, Saroyi urganjida qorako'l teri savdosi olib borilgan. Saroyi po'stda mavsum davomida o'ziga xos qorako'l birjasi bo'lib, teri savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogar-vositachilar yig'ilardi. Ko'p savdogarlarning xarid qilingan terini oshlash uchun maxsus uylarida joylashtirishar va ularga maxsus ishlov berishardi. Chetga olib chiqilgan tovarlar juda ko'p foyda berishini anglagan ayrim savdogarlar teri bahosini oshirganlar. 1896-yilda buxorolik savdogar Nasriddinboy Yoqubboy o'g'li qorako'l terisini Nije Novgorod yarmarkasiga olib borib sotganida 60 ming rubl foyda olgan [28].

Ayni paytda Yevropada qorako'l teriga o'xshash "plush" ishlab chiqilishi tabiiy teri narxining tushishiga sabab bo'ldi. Shu yillarda katta savdogar Ubaydulla Xo'ja Nijniy Novgorodda 350.000 dona qorako'l terisini 8 rubldan sotib, katta miqdorda moddiy zarar ko'rgan [29].

### XULOSA

Xullas, Buxoro amirligida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida rivojlangan tadbirkorlik sohalaridan qorako'l teri yetishtirish va uning savdosi bilan shug'ullanish edi. Tadbirkorlar sifatli mahsulot yetkazish tamoyiliga amal qilganlar va ichki hamda tashqi savdoda yetakchilikni qo'ldan bermaganlar. Paxta yetishtirishning kengayishi va Yevropada qorako'l terining o'rnini bosuvchi



## TARIX

mahsulot yaratilishi bu sohaning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi oqibatida qorako'l teri sohasidagi tadbirkorlarning boshqa yo'nalishlarda faoliyat olib borishlariga turtki bo'ldi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Васин Б.Н. и др. Руководство по каракулеводству. Москва: Колос, 1971. – С.65.
2. Таниева Г. Қарши беклиги тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.32.
3. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 1 том. Тошкент: Фан, 1976. – Б.369.
4. Шимоновский В. В. Москве перед ярмаркой //Туркестанский сборник. Том.505.
5. Шимоновский В. Каракуловый рынок // Туркестанский сборник. Том. 511.
6. Каракул. // Туркестанский сборник. Том. 434. – С. 92-95.
7. 50-лет Всесоюзному научно-исследовательскому институту каракулеводства. (Исторический очерк). Ташкент: Фан, 1980. – С. 4-5.
8. Каракульевая овца и разведение в Средней Европе // Туркестанский сборник. Том 468. – С. 98-105.
9. Шимоновский В. В Москве перед ярмаркой. // Туркестанский сборник. Том.505. – С. 43-48.
10. Каракульская овца. //Туркестанский сборник. Том 543. – С. 88-90.
11. Насиров Б. Опыт развития каракулеводства совхозов Узбекистана. Дисс. канд. сель... наук. – Самарканд, 1963. – С. 14.
12. Алимов И. Аграрные преобразование в Народных Советских Республиках Хорезма и Бухары (1920-1924гг). Ташкент: Узбекистан, 1970. - С. 9.
13. Жилыкова В.С., Чепилова А.К. Основы каракулеводства. Алма-Ата: Қайнар, 1976. – С. 208.
14. Бухорода қоракўлчилик иши // Озод Бухоро, 1923 йил 1 ноябрь.
- 15.Бюллетень. Первой экономической конференции Средне-Азиатских Республик (Туркестанской, Бухарской и Хоразмской). Ташкент. 6 март, 1923. - №2. – С.2-3.
16. Сухарева О.А. Бухара: XIX- нач.ХХ вв (позднефеодальный город и его население). Москва: Наука, 1966. -С. 243.
17. Сухарева О.А. Бухара: XIX- нач.ХХ вв (позднефеодальный город и его население). - С. 241.
18. История Бухары. С древнейших времен до наших дней. Ташкент: Фан, 1976. - С. 168.
19. Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX века. Душанбе: Изд-во АНТадж.ССР, 1963. - С. 68.
20. Ўзбекистон Миллий архиви, И-1 фонд, 29-рўйхат, 851-йиғмажилд, 92-варақ.
21. Сухарева О.А. Бухара: XIX- нач.ХХ вв (позднефеодальный город и его население). - С. 243.
22. Ўзбекистон Миллий архиви, И-3 фонд, 2-рўйхат, 25-йиғмажилд, 108-варақ.
23. История Бухары с древнейших времен до наших дней. Ташкент, 1976. - С.168.
24. История Бухары с древнейших времен до наших дней. - С.169.
25. Саййид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистон бешиги (форс тилидан Х.Тўраев таржимаси). Бухоро: Бухоро нашриёти, 2004. - Б.120.
26. Насиров Б. Опыт развития каракулеводства совхозов Узбекистана. Дисс. канд. сель... наук. – Самарканд, 1963. – С. 16.
27. Наимов Н. Мен яшашни истайман. Бухоро, 1994. - Б. 22-23.
- 28 Сухарева О.А. Бухара: XIX - нач. ХХ вв. (позднефеодальный город и его население). - С. 244.
29. Сухарева О.А. Бухара: XIX- нач.ХХ вв. (позднефеодальный город и его население). Москва: Наука, 1966. - С. 244.